



PIRLS TOPSHIRIQLARI ORQALI O`QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

*Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini o'rganish bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan, topshiriqlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *O'qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS, IEA*

Abstract. *In this article, the general overview about the aim and the content of the assessment for studying reading literacy of the primary class children in the scope of the PIRLS- Progress in International Reading Literacy Study has been analyzed.*

Key words: *Reading literacy, critical thinking, PIRLS, IEA*

Yurtimizda innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har taraflama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktab-dan tashqarida ta'lif olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodelaydi.

PIRLS topshiriqlari orqali o'quvchilar o'qish savodxonligi oshishi bilan bir qatorda ularni xotirasi ham mustahkamlanib boradi. Endi Gulxan jurnalida olingan "Ochko'z chumolilar" hikoyasi bilan tanishib chiqsak.

Bor ekan-u, yo'q ekan, och ekan-u, to'q ekan. Qadim zamonda ulkan daraxt ostida chumolilarning qasri bo'lgan ekan.

Chumolilar o'z malikalariga bo'ysunib, daraxtning ildizini kemirib yashar ekan. Oxir-oqibat ildizlari lat yegan daraxt quriy boshlabdi. Bundan daraxt tepasida



yashovchi asalarilar malikasi norozi bo'libdi va chumolilar malikasiga elchi yuboribdi. Elchi asalariga yo'lida o'rgimchak, chigirtka va kapalak hamroh bo'libdi.

- Assalomu aleykum, ey ulug' malika. Biz sen bilan ko'p yillardan beri tinch yashab kelmoqdamiz. Ammo, sening fuqarolaring uyimiz bo'lgan daraxtni yeb quritmoqda. Sendan bu ishga barham berishga farmon chiqarishingni so'rab keldik, - deyishibdi ular.

Malikaga bu taklif yoqmabdi. Elchi asalari va sheriklarini zindonga tashlabdi. Daraxtdagi hasharotlarga esa urush e'lon qilibdi.

Hasharotlar qo'rquv ostida asalarilar malikasi huzuriga yig'ilishibdi va chumolilarga qarshi hiyla tuzishibdi. Hasharotlardan boshqa bir elchi malika huzuriga jo'natilibdi.

- Ey ulug' malika, senga xushxabar olib keldim.

Olisda odamlar yashaydigan so'lim qishloqda bir lazzatli yegulik bor. Senga shuni olib keldim.

Malika yegulikni tatib ko'rib, so'rabdi.

- Bunday shirin narsani hali yemaganman. Bu nima?

- Murabbo, uni odamlar pishiradi, - debdi elchi.

Malika elchidan murabboni qayerdan olib kelganini so'rab bilibdi. Keyin barcha chumolilarni yig'ib, yo'lga chiqibdi.

Yarim tunda manzilga yetib kelishibdi. Yerni kavlab, uyga kirishga yo'l ochishibdi. Pol teshiklaridan uy xonasiga kirib borishibdi. Stol ustida turgan murabboning hidini sezib, u tomon yo'l olishibdi.

Ertalab uyg'ongan xonadon bekasi oshxonaga chiqib, qo'rqib ketibdi. Stol ustidagi murabbo idish atrofi son-sanoqsiz chumolilarga to'lib ketganmish. Beka chumolilarga qarshi dori olib kelib, murabbo atrofiga sepibdi. Shu zahoti dori ostida qolgan chumolilar ko'rishdan, eshitishdan mosuvo bo'libdi. Ular talvasaga tushib, u yoqdan-bu yoqqa borib kela boshlabdi.

Shundan so'ng chumolilar aldanganlarini tushunib yetishibdi. Omon qolganlari daraxt ostidagi uyga qaytib borishmabdi. G'allazordan joy topib, yer osti qasrini qurishib, o'sha yerda yashay boshlashibdi.

Asalarilar aziz vatani bo'lgan daraxtni ochko'z chumolilardan shunday saqlab qolgan ekan. Daraxt yanayam chuqurroq ildiz otib, gullab, meva beribdi. Hasharotlar unda inoq, uzoq va baxtli hayot kechirishibdi.

Endi shu matn bo'yicha savol va topshiriqlar bilan tanishib chiqamiz.

1. Chumolilarning qasri qyerda joylashgan edi?



2. Ulkan so'zi qanday ma'noni anglatadi?

Katta

Kichik

O'rtacha

Baland



3. Chumolilar nima bilan oziqlanib yashar edi?
Daraxtning ildizini kemirib yashar ekan.
O'simlik urug'lari bilan yashar ekan.
O'simlik barglari bilan oziqlanib yashar ekan
Non ushoqlari bilan oziqlanib yashar ekan.
4. Nima uchun daraxt ildizlari quriy boshladi? Fikringizni bayon qiling.



5. Daraxt tepasida yashovchi asalarilar malikasi nima uchun norozi bo'libdi? Ikkita sabab keltiring.



6. Elchi asalariga yo'lda hamroh bo'lgan hashorotlar qatorini belgilang.
O'rgimchak, chigirtka va kapalak
O'rgimchak, chigirtka va ipak qurti
O'rgimchak, chigirtka va asalari
O'rgimchak, chigirtka va qo`ng`iz.

7. Asalari va uning hamrohlari chumolilar malikasiga nima deb shikoyat qilishdi? Ular qanday farmon chiqarishlarini talab qilishdi? Ertakdagi o'sha jarayonni tasvirlab bering va yozing.



8. Matnda ketma-ketlikni to'g'ri bajaring.
 - ___ Elchi asalari va sheriklarini zindonga tashlabdi.
 - ___ Hasharotlar qo'rquv ostida asalarilar malikasi huzuriga yig'ilishibdi va chumolilarga qarshi hiyla tuzishibdi
 - ___ Malikaga bu taklif yoqmabdi.
 - ___ Daraxtdagi hasharotlarga esa urush e'lon qilibdi.
9. Boshqa hashorot elchi malikaning huzuriga borib unga nimani taqdim qildi? Matnda keltirilgan shu joyini o'qib fikringizni yozing.



Kabi savollarga va topshiriqlar berib o'quvchilar bilimini mustahkamlab borishimiz mumkin. Bunday savol topshiriqlar bolalarni sergaklikka, topqirlikka, va matn mazmunini eslab qolish ya'ni xotirasini mustahkamlashga olib keladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki tadqiqotlarga tayyorgarlik jarayonida shuningdek, o'qish savodxonligi darslari jarayonida o'qituvchi darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchiga mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasini qo'ysa, o'quvchilarning berilgan matnni qay darajada o'zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali ham bilib olish mumkin. Bu kabi topshiriqlardan foydlanish o'quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri rivojlantirilib boriladi deb o'ylayman.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. U.N.Tashkenbayevning umumiyl tahriri ostida "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" Sharq» nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2019
2. <https://gulxan.uz/ertaklar/ochko-z-chumolilar.2022> yil.5-son